

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

DEKABR, 2025



ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**XI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, dekabr

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
1-jild, 11-son (dekabr, 2025-yil). – 92 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 15-dekabr

Mas'ul muharrir:
Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Xalilov Oybek, Axadova Diёra

ТРАНСФОРМАЦИЯ МЕТРОЛОГИЧЕСКИХ СИСТЕМ И ИННОВАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ
УСИЛЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ МЕТРОЛОГИЧЕСКОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ 5-14

TARIX FANLARI

Narimov Asadbek

XIVA XONLIGINING XVIII–XIX ASRLARDAGI TASHQI SIYOSATI 15-17

IQTISODIYOT FANLAR

Murtazayev Isabek

SAMARQAND VA NAVOIY VILOYATLARINING MINTAQAVIY SALOHİYATI HAMDA TARMOQ
STRUKTURASINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI 18-21

Pulatov Dilshod, Son Evgeniya

MEDIUM TERM BUDGETING AS A LINK BETWEEN WIDE FISCAL POLICY PURPOSES AND
BUDGETING 22-25

Маджитова Лолахон

ПЕРСПЕКТИВЫ ВЗАИМООТНОШЕНИЯ ТРАДИЦИОННЫХ ФИНАНСОВЫХ ИНСТИТУТОВ И
ФИНТЕХ-СТАРТАПОВ 26-30

FILOLOGIYA FANLARI

Ubbiniyazova Jamila

ЕРИК QAXRAMON TABIATINING DUALLIGI (QORAQALPOQ XALQ DOSTONI «ALPAMIS»
MISOLIDA) 31-34

Хакимова Дилдора

БИЛИНГВИЗМ В МНОГОЭТНИЧНЫХ РЕГИОНАХ УЗБЕКИСТАНА: САМАРКАНД–БУХАРА–
ТАШКЕНТ КАК СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ 35-38

Matmurodov Xojimurod

REY BREDBERINING MARSGA HUYUM ASARI BILVOSITA TARJIMASIDA RANG NOMLARINING
TAHLILI 39-42

Muzaffarov Javlon

JON TOLKIN IJODIDA GERMAN VA SKANDINAV EPOSI KUCHI VA TA'SIRI 43-46

YURIDIK FANLAR

G'ulommamatova Parvina

KRIPTO-AKTIVLAR ORQALI PUL YUVISHGA QARSHI KURASH: XALQARO HUQUQIY
MEXANIZMLAR 47-52

Normurodova Behro'za

IJTIMOY TARMOQLARDAN RAQAMLI DALIL TO'PLASHDA FOYDALANUVCHI HUQUQLARI VA
DAVLAT MANFAATLARI TO'QNASHUVI: XALQARO-HUQUQIY JIHATLAR 53-59

Караходжаева Окилахон

ОБЩАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ФОРМ ПАРЛАМЕНТСКОГО КОНТРОЛЯ 60-63

PEDAGOGIKA FANLARI

Haqiqatbekov Zafarbek

OLIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALAR SOG'LIG'INI SAQLASHDA PSIXOLOGIK MASLAHAT VA
PEDAGOGIK TRENINGLARNING ROLI 64-68

Rustamova Shoxista

TALABALAR TADQIQOT KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA ONLAYN ILMIY
LOYIHALAR TAJRIBASI 69-73

Turaxodjayeva Zulxumor

RAQAMLI HIKOYACHILIK (DIGITAL STORYTELLING) ASOSIDA AXLOQIY TARBIYA: SINFDAN
TASHQARI FAOLIYATDA QO'LLASH 74-76

Butayev Norbek

ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA TALABALARNING MUHANDISLIK
KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH 77-80

Jonibekova Mehriniso

REFLECTIVE PRACTICE AS A WAY OF DEVELOPING THE PROFESSIONAL IDENTITY OF
TEACHERS 81-83

TIBBIYOT FANLARI

Нурмаматова Нугина

ОСОБЕННОСТИ РАННЕЙ ДИАГНОСТИКИ АФФЕКТИВНЫХ РАССТРОЙСТВ ПРИ
ДЕМЕНЦИИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ И КЛИНИЧЕСКИЙ ВЗГЛЯД 84-86

PSIXOLOGIYA FANLARI

Rahmatullayeva Mushtariy

IJODIY FIKRLASH VA AQLIY INTELLEKT MODELINING UMUMIY XUSUSIYATLARI 87-91

IQTISODIYOT FANLAR

SAMARQAND VA NAVOIY VILOYATLARINING MINTAQAVIY SALOHIYATI HAMDA TARMOQ STRUKTURASINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI

Murtazayev Isabek Bazarbayevich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti,
Iqtisodiyot fakulteti, Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasi dotsent v.b.,
i.f.f.d. (PhD)

Email: Isabekmurtazayev72@gmail.com

ORCID: 0009-0005-9012-1918

Annotatsiya. Tezisdagi Zarafshon mintaqasining sanoat, agrar va turistik tarmoqlardagi ixtisoslashuvi hamda Samarqand va Navoiy viloyatlarining hududiy-iqtisodiy salohiyati tahlil qilingan. Mintaqaning rangli metallurgiya va qishloq xo'jaligidagi ustunligi, mehnat resurslari va mikrohududlar asosidagi rivojlanish xususiyatlari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: hududiy mehnat taqsimoti, sanoatlashuv, agrosanoat, mineral resurslar, turistik salohiyat, aglomeratsiya.

REGIONAL COMPETENCE AND STRUCTURE FORMATION FEATURES OF THE SAMARKAND AND NAVAI REGIONS

Murtazayev Isabek Bazarbayevich

Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan,
Faculty of Economics, Department of Economic Theory, Acting Associate Professor,
PhD

Annotation. The thesis analyzes the specialization of the Zarafshan region in the industrial, agricultural, and tourism sectors, as well as the territorial and economic potential of the Samarkand and Navoi regions. It highlights the region's advantages in non-ferrous metallurgy and agriculture, as well as the characteristics of development based on labor resources and micro-regions.

Key words: territorial division of labor, industrialization, agro-industry, mineral resources, tourism potential, agglomeration.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2025v1i11/n03>

Zarafshon mintaqasi respublika hududiy mehnat taqsimotida, asosan, rangli metallurgiya va yoqilg'i sanoat tarmoqlariga ixtisoslashgan bo'lib, shuningdek, mashinasozlik va metallni qayta ishlash (ayniqsa, avtomobilsozlik), kimyo va neft-kimyo, qurilish materiallari, yengil va oziq-ovqat sanoatining rivojlanishi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, mintaqada yirik ko'p tarmoqli qishloq xo'jaligiga ega bo'lib, respublika miqyosida don, paxta, kartoshka, sabzavot, meva va rezavorlar, uzum, go'sht, sut, tuxum, pilla, jun, qorako'l terilari kabi mahsulotlarni yetishtirishga ixtisoslashgan. Mos ravishda, Zarafshon mintaqasi hududida xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan ko'plab turistik obyektlar ham mavjud. Bu, albatta, birinchi navbatda, Samarqand va Buxoro shaharlarining noyob tarixiy-madaniy merosi bilan belgilanadi.

Samarqand viloyati mintaqaning sharqiy qismida joylashgan bo'lib, maydoni 16,77 ming km.kv. ni tashkil etadi, u respublika hududining 3,73 % ini egallagan holda O'zbekiston hududlari orasida 7-o'rinda turadi. Viloyat aholisi, 1-yanvar 2025-yil holatiga ko'ra, 4335,7 ming kishidan iborat bo'lib, uning respublika jami aholisidagi salmog'i 11,4 % ga teng. Aholi soni bo'yicha Samarqand viloyati O'zbekiston hududlari ichida 1- o'rinni egallaydi. Aholi zichligi viloyat bo'yicha o'rtacha hisobda 245,6 kishi km.kv.ga teng bo'lib, bu jihatdan viloyat ko'rsatkichi respublika o'rtacha darajasidan 3 barobar katta.

Samarqand viloyati ma'muriy-hududiy tarkibiga 14 ta qishloq tumani, 11 shahar (2 tasi - Samarqand va Kattaqo'rg'on viloyatga bo'ysunuvchi), 88 ta shaharcha va 1901 ta qishloq aholi punkti kiradi.

Viloyatdagi asosiy foydali qazilmalari - oltin, uran, volfram va turli qurilish xomashyosi. Nurota tog'larida Zarmitan yirik oltin koni joylashgan. Volfram rudalari Zirabuloq past tog'lardagi Ingichka konidan qazib olinadi.

Samarqand shahri ko'p funksiyali viloyat markazi bo'lib, so'nggi yillarda u ilm-fan, ta'lim, transport, turizm, tibbiy xizmat ko'rsatish sohalarida yirik viloyatlararo markazga aylandi. Shuningdek, ko'plab xalqaro ahamiyatidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy tadbirlar o'tkazilishi ta'sirida Samarqandning respublika ahamiyatidagi yirik ko'p funksiyali markazga aylanib bormoqda. Kattaqo'rg'on va Urgut shaharlari ko'p funksiyali tumanlararo markazlar, Payariq tumanidagi Chelak shahri mahalliy agrosanoat va xizmat ko'rsatish markazi, viloyatdagi qolgan shaharlar esa mahalliy agrosanoat va xizmat ko'rsatish funksiyali tuman markazlari hisoblanadi.

Samarqand shahri negizida respublikamizdagi yirik shahar aglomeratsiyalaridan biri shakllangan (Bulung'ur, Jomboy, Urgut, Toyloq, Samarqand, Oqdaryo, Pstdarg'om, Payariq tumanlaridagi ko'p aholi manzilgohlari ushbu aglomeratsiya doirasida joylashgan).

Viloyat mehnat resurslarining soni, 2025-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, 2168,4 ming kishiga teng bo'lib, viloyat aholisi tarkibidagi ulushi 52,6 % ni tashkil etadi (mamlakat bo'yicha mehnat resurslarining jami aholidagi ulushi 54,2 %). Mehnat resurslarining 75,4 % ini iqtisodiy faol aholi, 24,6 % ini esa iqtisodiy nafaol aholi tashkil etadi. Iqtisodiy faol aholi tarkibida iqtisodiyotda band aholining salmog'i 90,7 %, ishsizlar ulushi esa 9,3 % ga teng.

Iqtisodiy faoliyat turlaridan eng ko'p band aholi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (26,0 %), savdo (13,4 %), sanoat (12,0 %), ta'lim (9,9 %), qurilish (8,0 %), tashish va saqlash (5,6 %) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (5,2 %) kabi sohalarga to'g'ri keladi (2024).

Samarqand viloyati YAHMning tarkibida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining salmog'i 39,5 % (respublika bo'yicha 23,4 %), sanoat va qurilishning hissasi 21,5 % (respublika bo'yicha 31,1 %), xizmatlarning ulushi 36,5 % (respublika bo'yicha 38,7 %), shuningdek, sof soliqlar ulushi esa 2,5 % (respublika YAIMdagi ulushi 6,8 %) ni tashkil etgan[5]. So'nggi yillarda viloyat YAHM tarmoqlar tarkibida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining ulushi pasayib, boshqa sohalarning ulushi esa ko'payib bormoqda.

Bugungi kunda, Samarqand viloyati ikkita mikrohudud yo'nalishida rivojlanmoqda: Samarqand (Samarqand shahri, Samarqand, Toyloq, Bulung'ur, Urgut, Jomboy, Pstdarg'om, Oqdaryo va Payariq tumanlari) va Kattaqo'rg'on (Kattaqo'rg'on shahri, Kattaqo'rg'on, Ishtixon, Narpay, Paxtachi, Qo'shrabot va Nurobod tumanlari). Samarqand mikrohududi ko'p tarmoqli agrosanoat majmuasi, mashinasozlik sanoati, meva-sabzavotchilik, rekreatsiya va turizmga

ixtisoslashgan bo'lsa, Kattaqo'rg'on mikrohududi ko'proq oziq-ovqat sanoati, paxtachilik, donchilik, yaylov chorvachiligiga ixtisoslashgan holda, oltin, uran, volfram qazib olinishi bilan ham ajralib turadi. Samarqand mikrohududi viloyat xo'jaligining hududiy tarkibida yaqqol ustunlikka ega ekanligini ko'rish mumkin.

Navoiy viloyati Zarafshon mintaqasining markaziy qismida joylashgan bo'lib, O'zbekistonning eng yosh ma'muriy-hududiy birligi sifatida hisoblanadi, dastlab 1982-yil 20-aprel kuni Buxoro va Samarqand viloyatlarining bir guruh tumanlarini birlashtirish asosida tashkil etildi. Sobiq Ittifoqda 1988-yilda amalga oshirilgan ma'muriy-hududiy birliklarning qisqartirilishi doirasida viloyat tugatilib, hududi Buxoro va Samarqand viloyatlari tarkibiga o'tkazildi. Lekin 27-yanvar 1992- yilda Navoiy viloyati 1982-yildagi chegaralari asosida qayta tiklandi.

Viloyat maydonining kattaligi jihatidan O'zbekiston hududlari orasida Qoraqalpog'iston Respublikasidan keyingi 2-o'rinda turadi. Maydoni 111,1 ming km.kv. bo'lib, respublika jami maydonining 24,7 % ini tashkil qiladi. Viloyatda, 1-yanvar 2025-yil holatiga ko'ra, 1055,5 ming kishilik doimiy aholi yashagan bo'lib, bu respublika jami aholisining 2,9 % ini tashkil etadi. Aholi zichligi 1 km.kv.ga 9,5 kishiga teng bo'lib, bu borada viloyat O'zbekiston hududlari orasida eng oxirgi o'rinda turadi. Shahar aholisining ulushi 49,0 % , qishloq aholisining ulushi esa 51,0 % ga teng.

Navoiy viloyati tarkibiga 8 ta qishloq tumani, 7 ta shahar (3 tasi - Navoiy, Zarafshon, G'ozg'on - viloyatga bo'ysunuvchi), 46 ta shaharcha, 20 ta qishloq fuqarolar yig'inlari va 582 ta qishloq aholi punkti kiradi[4]. G'ozg'on 3.05.2019-yilda shahar maqomini olib, viloyat bo'ysunuviga o'tkazilgan bo'lib, 2023-yil holatiga ko'ra, mamlakatimizda shahar maqomidagi eng yosh aholi manzilgohi hisoblanadi.

Navoiy viloyati respublika YAIMning 7,5 % ini o'zida mujassam etgan holda, sanoat mahsulotining 15,3 %, qishloq xo'jaligi mahsulotining 4,4 %i, chakana savdo aylanmasining 3,7 % i, pullik xizmatlarning 2,5 % i, investitsiyalarning 7,2 % i, qurilish ishlarining 4,2 % i va tashqi savdo aylanmasining 2,5 % ini tashkil etadi. E'tiborlisi, yuqoridagi ko'rsatkichlarning aksariyati viloyatning respublika jami aholisidagi ulushidan kattaroq.

Navoiy viloyati ulkan mineral resurs salohiyatiga ega. Asosiy foydali qazilmalari - oltin, uran, kumush, nodir metallar, fosforit, asbest, dala shpati, marmardan iborat. Muruntov oltin koni jahon miqyosida eng yirik oltin konlaridan biri hisoblanib, ayrim yillarda qazib olish hajmi bo'yicha dunyodagi barcha oltin konlar ichida birinchi o'rinni egallagan.

Chunonchi, Navoiy issiqlik elektr stansiyasining quvvati respublikaning beshta viloyatini elektr energiyasi bilan ta'minlab berish darajasiga yetkazildi.

Viloyat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hududga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish bilan bog'liq. Aynan ushbu masala esa Navoiy EIZning mavjudligi bilan amalga oshiriladi va bu muhim ahamiyat kasb etgan holda hududda tadbirkorlik faoliyatini yanada ravnaq topishiga imkon beradi.

Навоий вилояти меҳнат ресурслари, 2025-йил 1-январ ҳолатига кўра, 570,6 минг кишидан иборат бўлиб, бу рақам вилоят аҳолисининг 54,1 % ига тенг (республика бўйича меҳнат ресурсларининг жами аҳолидаги улуши 54,2 %). Меҳнат ресурслари таркибида иқтисодий фаол аҳоли 78,1 % ини, иқтисодий нофаол аҳоли эса 29,9 % ни ташкил этади. Иқтисодий фаол аҳоли таркибида иқтисодиётда банд аҳолининг улуши 92,0 %, ишсизлар салмоғи эса 8,0 % га тенг[4].

Iqtisodiy faoliyat turlaridan eng ko'p band aholi sanoat (26,0 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (18,5 %), ta'lim (11,6 %), qurilish (9,8 %), savdo (8,5 %) kabi sohalarga to'g'ri keladi (2024-y.). Aholi bandligining tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishining o'ziga xos jihati sanoatda band bo'lganlar ulushining yuqoriligida o'z ifodasini topadi.

Viloyat YAHMning tarmoqlar tarkibi ko'pchilik hududlardan keskin farq qiladi, chunki uning eng katta qismini sanoat va qurilish sektori tashkil etadi. Viloyat iqtisodiyotida sanoat va qurilishning salmog'i 71,9 % (respublika YAIMdagi salmog'i 31,1 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining ulushi 13,6 % (respublika YAIMdagi ulushi 23,4 %), xizmatlarning hissasi 12,6 % (respublika bo'yicha 38,7 %), mahsulotlarga solingan sof soliqlarning ulushi esa 1,9 % (respublika YAIMdagi ulushi 6,8 %) ga teng. Shunday ekan, Navoiy viloyati O'zbekiston hududlari ichida eng sanoatlashgan iqtisodiyotga ega. Navoiy viloyati YAHM tarkibidagi kichik tadbirkorlik subektlarining eng past ulushi (26,8 %) bilan alohida ajralib turadi. Taqqoslash uchun, respublika YAIM tarkibida kichik biznesning ulushi 51,8 %, Surxondaryo va Jizzax viloyatlarida esa tegishli raqam 75 % dan ham yuqori[3].

Bugungi kunda, Navoiy viloyati hududi 3 ta yirik tabiiy-xo'jalik mintaqaga bo'linadi: cho'l-yaylov chorvachiligi va tog'-kon sanoatiga ixtisoslashgan Qizilqum mintaqasi (Zarafshon shahri, Tomdi, Uchquduq tumani va Konimex tumanining cho'l-yaylov qismi), sug'oriladigan dehqonchilik va ko'p tarmoqli ishlab chiqaradigan sanoatga ixtisoslashgan Zarafshon vodiysi (Navoiy shahri, Karmana, Navbahor, Qiziltepa, Xatirchi tumanlari, Konimex tumanining voha qismi) hamda tog'-yaylov chorvachiligi, lalmi dehqonchilik va qurilish materiallari sanoatiga ixtisoslashgan Nurota tog'lari va tog' oralig'idagi vodiylari (Nurota tumani, G'ozg'on shahri). Ushbu yirik tabiiy-xo'jalik mintaqalari Navoiy viloyati ichida mikrohududlari sifatida ham ko'rish mumkin.

Navoiy viloyatining ko'plab iqtisodiy ko'rsatkichlarida, ayniqsa, sanoat ishlab chiqarishida viloyat markazining ulushi juda yuqori, ya'ni mintaqqa iqtisodiyotining markazlashuv darajasi ancha katta. Navoiy shahrida bir qator yirik sanoat korxonalari, savdo va ijtimoiy obyektlarida atrofidagi tumanlar (shu jumladan, qo'shni Samarqand viloyatining Paxtachi tumani) aholisining katta qismi band bo'lib, kundalik ravishda Navoiy shahri va yaqin tumanlari o'rtasida juda intensiv mayatniksimon migratsion aloqalar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida Navoiy shahar aglomeratsiyasi shakllanmoqda. Shuningdek, Navoiy IES hamda "Navoiy" erkin iqtisodiy zonasi joylashgan Karmana tumani ham viloyat iqtisodiyotida, ayniqsa, tashqi iqtisodiy aloqalarida sezilarli salmoqqa ega.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari – hududiy iqtisodiy rivojlanish, sanoatlashtirish va investitsiya siyosatiga oid hujjatlar (2020–2024-y.).
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi – "Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy holati" yilnoma hisobotlari (2022–2024).
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya axborot markazi ma'lumotlari.2000-2024 yy.
4. Navoiy viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.
5. Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, dekabr

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
X Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
1-jild, 11-son (dekabr, 2025-yil). – 92 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 15-dekabr

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.